




**QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASI
STATISTIKA BOSHQARMASI**

**QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASINING
SANOAT ISHLAB CHIQARISHI
2025- YIL YANVAR**



DASTLABKI MA'LUMOT

**Tel.: 61-222-75-87
www.qrstat.uz**


Qoraqalpog‘iston Respublikasi sanoatining asosiy ko‘rsatkichlari

Sanoat bu – xomashyoni qayta ishlash, yer osti boyliklarini o‘zlashtirish, ishlab chiqarish vositalari va xalq iste‘moli mollarini yaratishni qamrab oluvchi ishlab chiqarish tarmog‘i.


Dastlabki ma‘lumotlar bo‘yicha 2025- yilning yanvar oyida Qoraqalpog‘iston Respublikasi korxonalaridan 1844,5 mlrd so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo‘lib, 2024- yilning yanvar oyiga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi 100,7 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o‘zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko‘rsatkichdir.

*Sanoat ishlab chiqarishi hajmi,
yanvar, mlrd so‘mda*




*Sanoat ishlab chiqarishi FHI,
yanvar, % da*




Sanoat ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlari

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, 1478,4 mlrd so'mni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 80,2 % ni tashkil etdi.



Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, tog'-konsanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatning – 115,6 % ga o'sishi kuzatildi.

Shuningdek, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning – 1,0 % ga, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning – 6,6 % ga hamda suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish – 12,9 % ga kamayish kuzatildi.





Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash – tabiatda qattiq jinslar shaklida uchraydigan (ko'mir, ruda), suyuq holatda uchraydigan (neft) yoki gazsimon holatda uchraydigan (tabiiy gaz) foydali qazilmalarni qazib olishni o'z ichiga oladi.


Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati korxonalari tomonidan 2025- yilning yanvar oyida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 20,8 mlrd so'm yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi 1,1 % ga to'g'ri keldi.

Sanoat ishlab chiqarishi hajmi, yanvar, mlrd so'mda





Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashning jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi

Sanoat ishlab chiqarishi FHI, yanvar, % da



**Yanvar oyida yirik sanoat korxonalari tomonidan
ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**
(o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan % da*)

Ohaktosh



* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra

**Yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi
sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi**

Sanoat mahsulotlari	2024- yil yanvar*	2025- yil yanvar
Ohaktosh, ming t.	15,2	12,9
Gaz kondensati, ming t.	4,9	3,7
Tabiiy gaz, mln. kub.m	79,1	71,8


* 2024-yil yanvar oyi uchun ishlab chiqarish xajmlari korxonalar tomonidan yillik balansga muvofiq aniqlik kiritilgan ma'lumotlar asosida shakllantirilgan

Ishlab chiqaradigan sanoat


Ishlab chiqaradigan sanoat bu – tarmoq yangi mahsulot chiqarish maqsadida modda yoki komponentlarni, materiallarni, garchi ishlab chiqarishning ma’lum turi uchun birdan-bir to’liq me’zon hisoblanmasa ham, fizik yoki kimyoviy qayta ishlashni o’z ichiga oladi.

2025- yilning yanvar oyida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalaridan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1478,4 mlrd so’mni yoki jami sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi 80,2 % ni tashkil etdi.


Sanoat ishlab chiqarishi hajmi, yanvar, mlrd so’mda




Ishlab chiqaradigan sanoatning jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi




Sanoat ishlab chiqarishi FHI, yanvar, % da



Yanvar oyida ishlab chiqaradigan sanoatda yirik korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan ayrim turdagi mahsulotlar
(o'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da*)



O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,1 % ni (2024- yilning yanvar oyida 0,0 %), o'rta-yuqori texnologiyali –41,9 % (57,3 %), o'rta-quyi texnologiyali – 8,6 % (4,0 %), quyi texnologiyali 49,4 % (38,7%) ni tashkil etgan.




Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 42,6 % (2024- yilning yanvar oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 81,7 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 21,6 % (2024- yilning yanvar oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 107,8 %) ga, oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 24,1 % (2024- yilning yanvar oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 101,1 %) to'g'ri keldi.

* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra

Yanvar oyida ishlab chiqaradigan sanoatda yirik korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan ayrim turdagi mahsulotlar (o'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da*)

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yog'och va po'kak buyumlar, pohl va to'qish uchun materiallardan buyumlar, qog'oz va qog'oz mahsulotlari, mebellar ishlab chiqarish – 3,3 % (2024- yilning yanvar oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 313,5 %) ni tashkil etdi.



* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra

Yirik sanoat korxonalarini tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi

2025-yilning yanvar oyida Qoraqalpog'iston Respublikasida 0,7 ming tonna o'simlik yog'i (2024-yilning yanvar oyiga nisbatan 47,9 % ga ko'paygan), 5,6 ming tonna yumshoq bug'doy va spelta uni (42,8 % ga ko'paygan), 0,9 ming tonna kalava ip (35,1 % ga ko'paygan), 21,9 ming tonna dinatriy karbonati (12,3 % ga ko'paygan), 60,3 ming tonna portlandsement (4,7 % ga ko'paygan), 364,3 ming litr aroq (6,5 % ga kamaygan), 2,2 ming tonna paxta tolasi (31,3 % ga kamaygan) hamda 0,2 ming tonna o'simliklardan olingan sharbat va ekstraktlar (56,2 % ga kamaygan), ishlab chiqarilgan.


Sanoat mahsulotlari	2024- yil yanvar*	2025- yil yanvar
Aroq, ming litr 100 % li spirt	389,8	364,3
O'simlik yog'i, (tozalangan), tonna	446,9	660,9
Portlandsement, tonna	57600,0	60328,1
Yumshoq bug'doy va spelta uni, tonna	3914,1	5589,0
Paxta tolasi, tonna	3178	2184

* 2024-yil yanvar oyi uchun ishlab chiqarish xajmlari korxonalar tomonidan yillik balansga muvofiq aniqlik kiritilgan ma'lumotlar asosida shakllantirilgan

Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish – kimyoviy jarayonlar yordamida organik va noorganik xomashyo, materiallarni qayta ishlashni va tayyor mahsulot ishlab chiqarishni o‘z ichiga oladi.


2025- yilning yanvar oyi yakunlariga ko‘ra, kimyo mahsulotlari ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 41,9 % ni tashkil etib, o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 18,3 % ga kamaydi hamda ishlab chiqarish hajmi 619,1 mlrd so‘mni tashkil etgan.



Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish

Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish – minerallar asosida mahsulotlar ishlab chiqarishga tegishli bo‘lgan ishlab chiqarish turlarini o‘z ichiga olib, shisha va shishadan mahsulotlar, keramik buyumlar, polga o‘rnatiladigan qoplamalar, kafel, cherepitsa, terrakota buyumlar, sement va xomashyodan tayyor mahsulotgacha ishlab chiqarishni o‘z ichiga oladi.


2025- yilning yanvar oyi yakunlariga ko‘ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 5,1 % ni tashkil etib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 39,1 % ga o‘sdi va ishlab chiqarish hajmi 75,6 mlrd so‘mga to‘g‘ri keldi.



Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish – yeyiladigan qishloq xo‘jaligi, o‘rmon va baliqchilik (oziq-ovqat) mahsulotlarini, spirtsiz ichimliklarni, mineral suvlarni va boshqa idishdagi suvlarni o‘z ichiga oladi.


2025- yilning yanvar oyi yakunlariga ko‘ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 21,1 % ni tashkil etib, o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 99,5 % va ishlab chiqarish hajmi 312,6 mlrd so‘mga to‘g‘ri keldi.



Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

Ichimliklar ishlab chiqarish – spirtsiz ichimliklar va mineral suvlarni ishlab chiqarishni, spirtli ichimliklarni ishlab chiqarishni, asosan fermentatsiya metodi orqali; pivo va vino, shuningdek, distillangan alkogol ichimliklar ishlab chiqarishni o‘z ichiga oladi.


2025- yilning yanvar oyi yakunlariga ko‘ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 3,0 % bo‘lib, o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 119,2 % ni tashkil etdi va ishlab chiqarish hajmi 43,8 mlrd so‘mga to‘g‘ri keldi.



To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish – to'qimachilik tolasini tayyorlash va yigirish, shuningdek, to'qimachilik gazlamalarini va tayyor to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish, to'qimachilik mahsulotlariga va kiyimlarga bezak berish, kiyimlardan tashqari tayyor to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.


2025- yilning yanvar oyida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 19,3 % ni tashkil etgan, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 5,8 % ga ko'payib, ishlab chiqarish hajmi 285,6 mlrd so'mga to'g'ri keldi.



Kiyim ishlab chiqarish

Kiyim ishlab chiqarish – barcha materiallardan (masalan, teri, to'qimachilik gazlamalari, to'qilgan va trikotaj gazlamalari va h.k.) barcha tikish mahsulotlarini (tayyor yoki alohida buyurtma bo'yicha qilingan), kiyimlarning barcha turlari (masalan, ustki kiyim, erkaklar, ayollar va bolalar uchun ichki kiyimlar, ish, ofis, kundalik yoki sport kiyimlari va h.k.) va aksessuarlarni ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.


2025- yilning yanvar oyida kiyim ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 2,2 % bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 32,2 % ga oshdi va ishlab chiqarish hajmi 32,8 mlrd so'mga to'g'ri keldi.



Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish

Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish – rezina va plastikdan mahsulot ishlab chiqarishni, ishlab chiqarishda foydalanadigan xomashyo materiallarini o‘z ichiga oladi. Lekin bu bo‘limga ishlab chiqarishning barcha turlari va materiallari kiradi degani emas.


2025- yilning yanvar oyi yakunlariga ko‘ra, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 0,7 % ni, fizik hajm indeksi 164,0 % ni tashkil qildi hamda ishlab chiqarish hajmida 10,0 mlrd so‘m kuzatildi.



Mebel ishlab chiqarish

Mebel ishlab chiqarish – korxonalar hamda muassasalar, oshxonalar mebellarini ishlab chiqarishni o‘z ichiga oladi.

2025- yilning yanvar oyi yakunlariga ko‘ra, ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi mebel ishlab chiqarishning ulushi 2,9 % ni, o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 278,9 % ni tashkil etdi hamda ishlab chiqarish hajmi 42,3 mlrd so‘m ekani kuzatildi.




Elektr, gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash – elektr energiya-sini, tabiiy gazni, bug'ni, issiq suvni va shu kabilarni doimiy tarmoqlar – kabellar, quvurlar, suv quvurlari orqali yetkazib berish bilan bog'liq faoliyatni o'z ichiga oladi.


Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 336,3 mlrd so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 18,2 % ini) tashkil etgan.

Sanoat ishlab chiqarishi hajmi, yanvar, mlrd so'mda



299,1


Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi



Sanoat ishlab chiqarishi FHI, yanvar, % da

8834,2

612,3




Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi

Sanoat mahsulotlari	2024- yil yanvar*	2025- yil yanvar
Elektrenergiya, mln.kVt.s	543,5	438,5
Issiqlik energiyasi, ming gkal	8,9	8,3
Gazsimon yonilg'ini quvurlar orqali taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mln so'm	23014,3	23150,9

* 2024-yil yanvar oyi uchun ishlab chiqarish xajmlari korxonalar tomonidan yillik balansga muvofiq aniqlik kiritilgan ma'lumotlar asosida shakllantirilgan

Elektrenergiya va issiqlik energiyasi ishlab chiqarish (O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da*)

2025- yilning yanvar oyida o'tgan yilning mos davriga nisbatan elektrenergiya ishlab chiqarish 80,7 % ni, issiqlik energiyasi ishlab chiqarish esa 93,4 % ni tashkil etdi.





* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish – qattiq va suyuq, sanoat va maishiy, shuningdek, zaharlangan chiqindilarning barcha turlariga ishlov berish (yig'ish, qayta ishlash va yo'qotish)ni o'z ichiga oladi.


Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 9,0 mlrd so'mga (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,5 % iga) to'g'ri keldi.

Sanoat ishlab chiqarishi hajmi, yanvar, mlrd so'mda



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilishning jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi

Sanoat ishlab chiqarishi FHI, yanvar, % da



mln so'mda


Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi

Sanoat mahsulotlari	2024- yil yanvar*	2025- yil yanvar
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mln so'm	786,4	795,8
Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar mln so'm	5927,1	6331,3
Xavfsiz chiqindilarni yig'ish bo'yicha xizmatlar mln so'm	997,2	1470,3

* 2024-yil yanvar oyi uchun ishlab chiqarish xajmlari korxonalar tomonidan yillik balansga muvofiq aniqlik kiritilgan ma'lumotlar asosida shakllantirilgan

Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish va suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar (o'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da*)

O'tgan yilning mos davriga nisbatan suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha 6,8 % ga, xavfsiz chiqindilarni yig'ish bo'yicha xizmatlarda 47,4 % ga hamda oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlarda 1,2 % ga ko'paydi.



Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar





Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar

* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra

Kichik biznes tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 593,3 mlrd soʻmlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 32,2 % ni tashkil etdi. 2024- yilning yanvar oyida kichik biznes subyektlarining umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 17,2 % ni tashkil etgan.

Sanoat ishlab chiqarishi hajmi, yanvar, mlrd soʻmda



Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi

Jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi, yanvar, % da

